MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH

Andijon viloyati Marhamat tumani 28-sonli DMTT tarbiyachisi
Onorboyeva Kamola Abdulazizovna

Annatatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish. Hozirgi kunda bollar salomatligi va psixologiyasiga ta’siri, va ma’naviy marifiy ishlarni maktabgacha ta’lim tizimida samarali tashkil qilish haqida aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ma’naviyat, ma’rifat, tadbirlar, she‘r, raqs.*

Bolalar g‘ayratli raqsga tushishar, she‘rni ko‘zlari yonib, to‘tidek o‘qishar, biroq, she‘r, raqs tugagach, ko‘zlari bo‘m-bo‘sh, hamma qatori bo‘lib qolishar edi. Chunki tarbiya og‘zaki edi. Amaliy emas edi. Fazilatlar treninglarda o‘rgatilmas, shu sabab natija fazilatga aylanmasdan, bilim darajasida qolib ketar edi. Shuning uchun bugun ayrim yoshli bolalarimizning xulqi bizni ranjitayotgan bo‘lsa, bunga ular aybdor emas. Ularning bilmasligi – tushuntirilmaganidan, qilmasligi – o‘rgatilmaganidan. Vatanparvarlikni ham, uyalishni, ma‘suliyatni, salom berishni ham.

Bolada ma’naviyatni shakllanganligi ma’naviyatni unga inson tomonidan qanchalik singdirilganligiga bog‘liq. Insonlardagi odob, iymon, vijdon, halollik, yaxshilik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik, do‘stlik, axloq kabi ma’naviy mezonlar ona qornida shakllanmaydi, garchi bu xislat va mezonlar inson bolasining qon tomirlari, biologik til ifodalanganda, genlarda mujassam bo‘lgan bo‘lsa ham, jamiyat umuman ijtimoiy muhit ta’sirida yaqqol shallanadi. Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur, xalqiga mehr va sadoqat bolaning yoshiga mos ravishda shakllantirish ma’naviy tarbiyani asosi

hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bu jarayon ma’naviy tamoyillarga asoslangan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshiga qarab belgilanadi va O‘zbekiston kelajagini barpo etuvchi fuqarolar uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarning asoslarini shakllantiradi. Maktabgacha tarbiya yoshi – bu shaxsning dastlabki “ochilish” davri. Ma’naviy tarbiya ikki tomonlama jarayondir. Bir tomondan, bu kattalar, ota-onalar, tarbiyachilarning farzandlariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan esa – bolalarning xatti-harakatlari, his tuyg‘ulari va munosabatlarda namoyon bo‘ladigan tarbiyaviy faoliyatdir. Shu sababli, tarbiya mazmunini belgilab olgach, turli xil ma’naviy tarbiya usullarini qo‘llash orqali ota-ona, tarbiyachi tarbiyaning natijalarini, bolalarning ma’naviy barkamolligini diqqat bilan tahlil qila borishlari kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, bolalarga tarbiya berish va ularning shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar orqali bolalarda yaxshi axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, o‘zaro hurmat va insoniylik asoslarini o‘rgatish mumkin. Quyidagi yo‘nalishlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish mumkin:

1. Ma'naviy tarbiya: Axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish: Maktabgacha yoshdagi bolalarga to‘g‘ri va noto‘g‘ri xulq-atvorni tushuntirish, o‘zaro yordam, samimiyat, halollik, o‘zini hurmat qilish kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirish. O‘zlikni anglash: Bolalarga o‘z salohiyatlarini anglash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam berish.

2. Milliy va umumbashariy qadriyatlarni o‘rgatish:

O‘zbek milliy an'analari va urf-odatlari: Maktabgacha ta'limda bolalarni milliy an'analar va urf-odatlar bilan tanishtirish, ular orqali o‘z vatanini sevishga, milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirish.

Diniy ta'lim: Maktabgacha yoshdagi bolalarga asosiy diniy qadriyatlarni o‘rgatish, yaxshi xulq-atvorni, rahm-shafqatni va tinchlikni targ‘ib qilish.

3. San'at va madaniyat orqali tarbiya: San'at va madaniyatga qiziqish uyg‘otish: Bolalarni musiqa, rasm chizish, raqs va boshqa san'at turlari bilan tanishtirish, ularni estetik go‘zallikni qadrlashga o‘rgatish. Adabiyot va hikmatlar: Bolalarga kichik hikoyalar, ertaklar, maqollar va ruboiylar orqali hayotdagi muhim darslarni etkazish.

4. Ijtimoiy ishlar va jamoat faoliyati: Guruhda ishlash: Bolalarga jamoaviy ishda hamkorlik qilishni o‘rgatish, guruhda ishlash, bir-biriga yordam berish va o‘zaro hurmatni rivojlantirish. Eko-tarbiyaviy ishlar: Tabiatni asrash, atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish kabi ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.

5. Hushyorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Bolalarni muammolarni hal qilishga o‘rgatish, tanqidiy fikrlash va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pozitiv munosabatlar: Hayotdagi muammolarga pozitiv yondashuvni o‘rgatish, doimo ijobiy fikrlashni targ‘ib qilish.

Maktabgacha ta'limda bu yo‘nalishlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bolalarga ongli ravishda axloqiy va estetik qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o‘qituvchilar va tarbiyachilar maxsus metodikalar va interaktiv usullarni qo‘llashlari zarur.Axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash metodlari va usullari xilma-xildir. Bolalarida mehribonlik, halollik to‘g‘risidagi tasavvurlar bolaning konkret xatti-harakati haqidagi suhbatlar yo‘li bilan shakllantiriladi. Bolalarning o‘zlari kuzatgan yoki sodir etgan xatti-harakatlarni ko‘ rib chiqish maqsadga muvofisdir. Bu bolalarnnng kundalik mashg‘ulotlarda (masalan, odob haqidagi suhbatlarda) olgan bilimlarini kundalik voqealar yoki bolalarning xatti-harakatlari bilan bog‘lash imkonini beradi. Xulosa qilib olsak xalqimizda yoshlikda olingan tarbiya toshga bitilgan bitik kabidir degan maqollar mavjud. Demak biz ta’lim-tarbiyani ayniqsa ma’naviy tarbiyani maktabgacha ta’lim

tashkilotlarida boshlashimish va bu ishlarni olib borishda samarali usul va vositalarni tanlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i. 2025- yil 25-avgust

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori

3. Aliev.A “Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat” T: Akademiya 2007-yil.

4. Qoraboev.U “O‘zbekiston bayramlari” T. 2001-yil.

5. Nosirov O‘. “Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish”. Uslubiy qo‘llanma, T. 2010-yil.

6. Axmedova M.E “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T. 2011-yil.